

SHAXSLARARO MUNOSABATLAR DIAGNOSTIKASI

Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinova

Toshkent amaliy fanlar Universituti „Psixologiya“

kafedrasi o'qituvchisi

Pedagogika fakulteti Psixologiya yo'nalishi

2-bosqich talabasi: To'xtasinova Sevinch

Annotatsiya: Shaxslararo munosabatlar -bu obyektiv tarzda boshdan kechiriladigan, turli darajada anglanadigan insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqalardir. N.N. Obozov fikriga ko'ra "Shaxslararo munosabatlar asosini o'zaro tasirga kiruvchi insonlarning emotsional holati va ularning psixologik xususiyatlari tashkil etadi. Ijtimoiy munosabatlar aslida odamning siyosiy munosabatlaridan tortib, uning shaxslararo munosabatlari xususiyatlarini o'z ichiga olgan murakkab jarayondir. Bu jarayonni turli nazariy oqim vakillari uni shaxslararo o'zaro tasirning turlicha namoyon bo'lishi shaklida tushunsalar, ijtimoiy almashinuv nazariyasi tarafdorlari odamlarning bir-birlariga nisbatan talablari kutishlari va manfaatdorliklarining o'zaro almashinuv jarayoni sifatida tasavvur qiladilar. Shunga o'xshash hozirda turli tuman yondashuvlar mavjud, lekin ularning barchasini birlashtiradigan yagona g'oya - bu odamlar o'rtasida sodir bo'ladigan o'zaro tasir va aloqa jarayonlarining mexanizmlarini aniqlash hamda ushbu jarayonni boshqarish usullarini ishlab chiqishdir.

Kalit so'zlar: sostometrik, kommunikativ, gnostik, paralingvistik, simpatiya, antipatiya, kinetika, ekstrolingvistika, proksemika, refleksiya, indetefikatsiya, stereoptiplash, FAST

KIRISH

Ijtimoiy munosabatlar aslida odamning siyosiy munosabatlardan tortib, uning shaxslararo munosabatlari xususiyatlarini o'z ichiga olgan murakkab jarayondir. Bu jarayonni turli nazariy oqim vakillari o'zlaricha o'rga ishlari malum. Masalan, interksionizm vakillari turli shaxslararo o'zaro tasirning turlicha namoyon bo'lishi shaklida tushunchalar, ijtimoiy almashinuv nazariyalari tarafdorlari - odamlarning bir-birlariga nisbatan talablari, kutishlar va manfaatdorning o'zaro almashinuv jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Shunga o'xshash hozirda turli tuman yondashuvlar mavjud lekin ularning barchasini birlashtiradigan yagona g'oya - bu odamlar o'rtasida sodir bo'ladigan o'zaro tasir va aloqa jarayonlarning mexanizmlarini aniqlash hamda ushbu jarayoni boshqarish usullarini ishlab chiqishdir.

Ijtimoiy munosabatlarni qanday yo'l bilan, qanday mezonlarga asoslanib o'rganish masalasi ham katta ahamiyatga ega. Bunda asosan 3 ta mezon nazarda tutiladi:

1. sostometrik mezon

- 2.kommunikativ mezon
- 3.gnostik mezon yani bilish mezoni.

Shunga mos holda asosan ikki toifali uslublar qóllaniladi:

- 1.bevosita munosabatlar
- 2.munosabatlarga tasir korsatuvchi odamning xususiyatlarini baholash metodlari.

Sostometrik uslub.Bu usulni óziga hosligi tanlov mezonlari va savollarga qóyiladigan barcha talablar tógrisida kóplab adabiyotlarda bor.Oxirgi yillarda bu metod nafaqat konkret jamoada har bir shaxsning ijtimoiy mavqeyini aniqlaydi.Sostometrik mezon shunday savolni nazarda tutadiki uning yordamida jamoadagi odamlar órtasidagi munosabatlar aniqlanadi.

Komminikativ mezon esa sostometrik tanlov sharoitlarida,kimni,nima uchun tanlayotganligini tógrisida aniq tasavvur hosil bólishini nazarda tutadi.Masalan:

- 1.Kuchsiz:"Kim bilan bósh vaqtingizni ótkazishni xoxlardingiz?"
- Kuchli:"Ish orasidagi tanaffuslarni kim bilan birga ótkazishni xoxlaysiz?"
- 2.Kuchsiz:"Kim bilan birga ishlashni xoxlaysiz?"

Kuchli:Yangi chiqqan Farmoyishda belgilangan vazifalarni bajarishga kimmi sherik qilishni istaysiz?"

Shaxslararo munosabatlarning rivoji,jinsi,yosh,milliy xususiyatlar va boshqa kópgina omillar bilan belgilanadi.

V.N.Drujinin fikricha,ayollarda muloqot doirasi erkaklarga nisbatan ular ózini namoyon qilish ózlaricha haqida boshqalarga imformatsiya berish ehtiyojini his qiladilar.Ayollar uchun shaxslararo munosabatlarda ifodalanuvchi xususiyatlar ahamiyatli bólsa,erkaklar uchun ish bilan boǵliq,xislatlar muhimroq hisoblanadi.

Guruh va jamoalarda shaxs 2 xil munosabatda bólad:

- 1)Ish yuzasidan bóladigan munosabatlar
- 2)Shaxsiy munosabatlar.

Ish yuzasidan bóladigan munosabatlar guruh tarkibi bilan birga hujjatlarda qayd etiladi.Shaxsiy munosabatlar esa simpatiya,boǵliqlik,dóstlik,órtoqlik,antipatiya asosida vujudga keladi.

Shaxslararo munosabatlar ózining dinamikasiga ega:

- 1)tarkib topadi
- 2)mustahkamlanadi
- 3)muayyan chóqqiga kótariladi
- 4)susayadi yo tugallanadi

Shaxslararo munosabatlarning 3 darajasi

- 1.Simpatiya,antipatiya asosida vujudga keluvchi munosabatlar
- 2.ish yoki óqish yuzasidan bóladigan ózaro munosabatlar
- 3.insoniy munosabatlaryoki chuqur ishonchga asoslangan ózaro munosabatlardir.

Noverbal kommunikatsiya shakllari:

- 1.Kinestetika-tana,qól harakatlari,mimika,pantomimika.
- 2.Paralingvistika-bu ovoz tembri,diapazoni,tonalligi.
- 3.Ekstrolingvistika-nutqtempi,pauzalar,tomoqqirish,yiğlash,kulgi.
- 4.Proksemika-muloqotnj vaqt va fazoviy jihatdan tashkil etilish sohasi.

Muloqotning interaktiv tomoni- bu insonlarning muloqot jarayonida bir-birlariga ózaro tasir etishidir.

1.Muloqot va birgalikdagi faoliyat ijtimoiy nazorat sharoitlarida amalga oshiriladi.

2.Ijtimoiy nazorat esa ijtimoiy normalar-jamiyatda qabul qilingan,kishilarning ózaro tasir va munosabatlarini tartibga soluvchi xulq atvor namunalari asosida olib boriladi.

Ijtimoiy nazorat mexanizmlari:

- 1.Maqullamasluk
- 2.Ayblash
- 3.Jazolash.

Muqotning pertceptiv tomoni-bu muloqot jarayonida ózaro bir birini tushunish va bir birini idrok qilish.

Indentefikatsiya-bu insonning ózini boshqa insonga,guruhga óxshatishidir.

Refleksiya-bu insonning muloqotdagu sheriklari uni qanday idrok etishlarini anglash va shunga qarab óz hatti harakatini tógrilash.

Stereotiplashtirish-xulq-atvor shakllarini tasniflash va ularning sabablarini avval malum bólgan,yani ijtimoiy stereotipga javob beruvchi holatlarga kiritish orqali tahlil qilishdir.

Bevosita kommunikativ bilimdonlikni aniqlash uchun "Muloqotga kirishuvchanlik darajasi", "Muloqot", "Fikrni bayon eta olish" kabi qator metodikalar qóllaniladi.Ijtimoiy-psixologik bilimdonlik bevosita odam tomonidan ózini ózi bilish autopsixologik bilimdonlik bilan boğliq.Bu odamdagi shunday malakalarki,ular uni óz sifatlarini diagnostika qila olish-óz ózini diagnostika,óz ózini tuzata olish,óz ózini takomillashtira olish óziga ózi motivatsiya bera olish,bar qanday malumotdan samarali foydalana olish,psixolingvistik bilimdonlikni nazarda tutadi.

Sosiometrik usulda:jamoadagi har bir odamning ijtimoiy mavqeyi asosan sosiometrik usulda órganib kelingan.Hozirgi vaqtga kelib,bu usulni g yuzlab shakllari mavjud.Lekin jamoadagi manaviy iqlimnu,har bir jamoa asosining unda tutgan órni va mavqeyini anglashda sostometriyaning qaysi shakli yoki kórinishidan foydalanmaslik zarur.Misol uchun:maqсад nima,savollar mazmuni,savollar uchun mezonni aniqlash,tanlovni malum tarzda cheklash,sórovni ótkazish va natijalarni qayta ishlash.V.Grabal sostometrik sórovning óziga mos shaklini taklif etadi.Malumki,sosiometriyaning ananaviy shaklida shaxs mavqeyi quyidagi formula

yordamida aniqlanadi. V. Grabal bu yerga yana boshqa indeksni ham qoshadi: tasir, mashhurlik, yoqimtoylilik.

XULOSA

Muloqotda suhbatdoshlarning kóz qarashlari-vizual kontaktlari ham katta ahamiyatga ega. Vizual kontakt-bu qarashlar soni, ularning uzoqligi, qarashlardagi statika va dinamik almashinuvlar, kóz olib qochishlar va boshqalardir. Argayl shulardan kelib chiqib, "yaqinlik formulasi"ni ishlab chiqqan va bunda intimlilik darajasi suhbatdoshlarning órtasidagi masofaga va kóz qarashlarga boǵliqligini isbotlagan. Chunki kóz qarashlar suhbatdoshning muloqotga tayyorligi, uni davom ettirish kerak yoki kerak emasligi haqida malumot berib, suhbatning yónalishini belgilaydi. Ilmiy adabiyotda yuz qiyofasining 2000 dan ziyod qirralari aniqlangan. Ularni malum tartibda tizimga solish uchun P. Ekman "FAST"-Focial Affect Scoring Technique deb nomlangan metodikani ham taklif etgan. Unga kóra yuz uch zonaga bólinadi: 1-kóz va peshona, 2-burun va burun oldi, 3-oǵiz va iyak zonasi. Ularning har birida turlicha bóladigan 6 xil emotsional holatlar ajratiladi-quvonch, jahl, hayrat, qórquv, ǵam va nafrat. Jon Chostara ózining "Delovoy etiket" nomli kitobida muloqot jarayonida namoyon bóladigan va aniq mano va mohiyat kasb etadi. Boshqa jamoada esa ish butunlay boshqacha tashkil etilgan bólishi mumkin. Oqil va tashabbuskor rahbar qól ostida ishlayotganalr jamoasini bir yaxlitlik deb tasavvur qilib, ishga ketayotganda, eng avvalo kecha oxiriga yetkazolmagan ishlari bor yóqligini bugun qanday ishni va kim bilan kim orqali bitkazishini ishni yanada yaxshilash uchun bugun yana qanday choralar kóra olishi haqida óylaydi. Rahbar esa ana shunday tashabbuskor, mehnatkash, jonkuyar odamlar bilan doimo hisoblashadi va ular fikriga quloq soladi. Bundan rahbarning mahorati uning ana shu jamoadagi norasmiy va rasmiy liderlar bilan hamkorlikda ishlash olish sanati bilan baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Burluchuk L. Psixodiagnostika - SPb:2002
2. Karimova V.M. Psixologiya. Óquv qóllanma. -T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, "ÓAJBNT" markazi, 2002-205 b.
3. Karimova V.M, Akramova F.A. "Psixologiya". 2- qism. Maruzalarni. - T.: TDIU, 2005.-125 b.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. -T.:1994
5. Mayers D. Sostalnaya psixologiya. 1999-688 s.
6. Meliya M. Biznes - eto psixologiya: Psixologicheskiye koordinati.
7. Kvinn V. Prlikladnaya psixologiya. - 2000.-560 s.
8. Klimov Ye.A. Osnovi psixologiyasi:1997